



## 2019-yilning yanvar-may oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –  
**1610,5 mlrd. so`m**

O`tgan yilning mos davriga  
nisbatan –  
**109,4 %**

Nodavlat mulkchiligidagi  
tashkilotlar –  
**1528,7 mlrd. so`m**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar  
–  
**81,8 mlrd. so`m**

Joriy yilning yanvar - may oylarida Farg'ona viloyatida jami 1610,5 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sinh sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 173,6 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sinh sur`ati 293,5 % ga o`sgan bo`lsa jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan keskin oshgan - 10,8 %.

Jami qurilish ishlari –  
**1 610,5 mlrd.so'm**  
O'sish sur'ati - **109,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari -  
**173,6 mlrd.so'm**  
O'sish sur'ati - **293,5 %**

Kichik va mikrofirmalar -  
**1 041,1 mlrd.so'm**  
o'sish sur'ati - **103,0%**

Norasmiy sektorlar -  
**395,8 mlrd.so'm**  
o'sish sur'ati - **98,3%**



## FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 64,6 %i to'g'ri keldi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etgan holda 1041,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlarining 24,6 % ni tashkil etdi va 395,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 98,3 % ni tashkil etgani kuzatildi.



Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi **yangi bino va inshootlarni qurish** bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 59,2 %i yoki 953,6 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini yaratishga qaratilgan.

**Yirik qurilish tashkilotlari** tomonidan jami qurilish ishlarining 2,7 %i yoki 44,0 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.




**Norasmiy sektor** hissasiga jami qurilish ishlarining 21,4 %i yoki 344,7 mlrd. so'm yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** tomonidan jami qurilish ishlarining 35,1 %i yoki 564,9 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.



## FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 3,7 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga ko'paygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga kamayib, 64,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamayib, 32,0% ni tashkil etdi.



## Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 3,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 64,3 % (1,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 32,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.



## Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 34,8 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 22,8 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 63,1 % (21,9 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi.



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 31,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,9 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 68,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,9 % punktga kamayish kuzatildi.



# FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


## HUDUDLAR KESIMIDA QURILISH ISHLARI

No	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-may (mlrd, so'm)	2019 yil yanvar-may (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:		1243,0	1610,5	109,4	100,0
1	Farg'ona shahar	307,5	351,6	96,7	21,8
2	Qo'qon shahar	132,4	141,5	90,4	8,8
3	Quvasoy shahar	95,7	171,4	151,6	10,6
4	Marg'ilon shahar	104,7	129,8	104,8	8,1
5	Oltiariq tumani	46,7	83,9	151,0	5,2
6	Qo'shtepa tumani	43,7	68,7	132,1	4,3
7	Bag'dod tumani	78,8	62,3	66,9	3,9
8	Buvayda tumani	32,2	37,4	97,4	2,3
9	Beshariq tumani	29,1	58,6	170,0	3,6
10	Quva tumani	56,5	83,3	124,1	5,2
11	Uchko'prik tumani	58,7	54,9	79,3	3,4
12	Rishton tumani	19,3	38,6	167,5	2,4
13	So'x tumani	26,1	22,4	72,1	1,4
14	Toshloq tumani	33,7	35,7	89,0	2,2
15	O'zbekiston tumani	21,8	20,4	79,0	1,3
16	Farg'ona tumani	54,3	32,8	51,0	2,0
17	Dang'ara tumani	59,5	91,7	130,0	5,7
18	Furqat tumani	29,4	50,3	143,7	3,1
19	Yozyovon tumani	12,7	75,4	503,4	4,7



## FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi  
(jamiga nisbatan, % da)




O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hissasi viloyatning Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining 21,8 % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida 10,6 % ni, Qo'qon shahrida esa 8,8% ni tashkil etdi. Shuningdek jami qurilish ishlari hajmida hissasi kam bo'lgan tumanlar xususan, So'x tumanida jami qurilish ishlari hajmining 1,4 % i hamda O'zbekiston tumanida 1,3 % ni tashkil etdi.





## FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Hududlar bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori hisssasi viloyatning Yozyovon tumanida 503,4 % kuzatilib jami qurilish ishlari hajmining 4,7 % ni tashkil qildi. Dang'ara tumanida 130,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 5,7 % ni, Quva tumanida 124,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 5,2 % ni, Beshariq tumanida 170,0 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 3,6 % ni, Rishton tumanida 167,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 2,4 % ni, Furqat tumanida 143,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 3,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Quvasoy shahrida 151,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 10,6 % I, Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 8,8 % ni tashkil etdi.

# FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

“Investitsiyalar va qurilish statistikasi” bo'limi

Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov

Aloqa telefoni: (0373) 241-72-75